

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMVAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI

FRANSUZ TILI FONETIKASI VA GRAMMATIKASI

K A F E D R A S I

R E F E R A T

Mavzu: *Italyan tilida o'zlashma so'zlar*

Bajardi : 3-kurs 08-guruh talabasi

Nurmamedova Zarnigor

Ilmiy rahbar : o'qituvchi

Gulyamova M.Ya.

Samarqand – 2014

Reja:

I KIRISH. TIL MILLIY MA'NAVIYAT, MA'RIFAT VA MADANIYATNING KO'ZGUSIDIR.

1.1 Til millat boyligi.....3

1.2 Leksika va o'zlashma so'zlar4

II ASOSIY QISM. ITALYAN TILIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR

2.1 Italyan tili leksikasining tashkil topishi. O'zlashma so'zlar va
neologizmlar.....6

2.2 Italyan tiliga har xil davrlar mobaynida kirib kelgan o'zlashma
so'zlar.....11

2.3 Yevropa davlatlarining italyan tili leksikasiga ta'siri.....15

2.4 Italyan dialektlaridan o'zlashgan so'zlar guruhi.....20

III XULOSA.....22

IV FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....24

KIRISH

TIL MILLIY MA'NAVIYAT, MA'RIFAT VA MADANIYATNING KO'ZGUSIDIR.

1.1 Til millat boyligi

Til- millat ko'zgusi, uning o'zligini, ma'naviy qiyofasini ko'rsatib beruvchi bebaho boylikdir. Ona tilini muqaddas bilish o'zini, qadr-qimmatini , g'ururini anglash, tarixini, milliy qadriyatlarini hurmat qilish demakdir.

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tili muhim o'rin tutadi. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning ko'zgusidir . Hadisda “ *Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir*” deyiladi. Har bir xalq, millat o'z tiliga hurmat bilan qaraydi. Chunki til millatning tamal toshi, u boy berilsa , millat ham boy beriladi. Yurtboshimizning “*Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar* ”, deb ta'kidlagani bejiz emas. Demak, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir.

Dunyodagi qay bir xalqni olmaylik, uning jahon siviliziyasidagi o'rni va mavqei , betakror milliy o'zligi va tarixiy tajribasi bilan belgilanadi. Milliy o'zlikning birinchi belgisi bu milliy til bo'lib, u millatning millat bo'lib shakllanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi. Til bo'lmasa el ham, millat ham bo'lmaydi. Elni – el millatni millat darajasiga ko'taradigan uning yashashi va faoliyatini belgilab turadigan vosita til ekan, u bilan butun insoniy qiyofalar shakli shamoyiliga ega bo'ladi. Xalqning madaniy - ma'naviy boyligi, aql idroki va tafakkuri, ilmiy , tarixiy madaniy boyliklari uning tilida o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda til xalqning qalbi va borlig'idir. Til xalqning buyuk va bebaho ma'naviy boyligi, bitmas tunganmas xazinasidir.

Til jamiyat boyligi, u jamiyat a'zolarining o'zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma'naviy turmushida ro'y beradigan barcha voqea va hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Til ayni

ma'noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo'ladi. Mamlakatimizda ma'naviyat sohasida olib borilayotgan islohotlarda til muammolariga, xususan davlat tili, shuningdek chet tili masalalariga alohida e'tibor qilinayotganligi bejiz emas. Chet tillarni mukammal o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani buning yaqqol dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-2014 yillardagi qabul qilingan **“Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”**gi qarori o'sib kelayotgan yosh avlodga yaratilayotgan barcha shart-sharoitlar jumladan, internet tarmoqlariga ulangan o'quv zallari, elektron manbalar, chet davlatlarining adabiyotlari, kitoblarga boy ARM lari ularning kelajakda yuksak salohiyatli inson bo'lishiga ko'mak beradi.

Jahon tillari o'z grammatik qurilishi, lug'at boyligi va boshqa jihatdan birbiridan farq qiladi. Lekin shu bilan birga ular barcha tillar uchun mushtarak bo'lgan umumiy qoidalar asosida rivojlanadi. Til davr bilan, zamon bilan hamohang ravishda o'zgarib boradi. Masalan, o'tmishda jahon ma'daniyati rivojiga katta hissa qo'shgan rimliklar so'zlashgan qadimgi lotin va yunon tillari italyan tilining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

1.2 Leksika va o'zlashma so'zlar

Leksika eng harakatchan, doim rivojlanuvchi komponent hisoblanadi. Jamiyatda yuz berga yangiliklar, rivojlanish va o'zgarishlar leksikada o'z ifodasini topadi.

Leksikaning rivojlanishi ikki yo'nalishda boradi. Bir tomondan, leksika o'z taraqqiyoti jarayonida jamiyat taqqiyotida yuz bergan tarixiy o'zgarishlarni, yangiliklarni ifodalash orqali boyiydi. Leksika boshqa tillarda qabul qilingan so'zlar, yaratilgan yangi so'zlar, yangicha atamalar, yangicha iboralar so'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirishlari hisobiga boyiydi. Leksikada yuz bergan o'zgarishlar til sistemasiga bog'lq bo'lmaydi. Ikkinchi tomondan, leksika o'zida mavjud bo'lgan so'z vositalar yordamida yangi so'zlar yasash hisobiga boyiydi.

Yuqorida aytib o'tilgan jarayon til sistemasi(grammatikasi) bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Til sistemasi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tarzda leksikaga kirib kelgan so'zlar o'zlari shakllangan ma'lum bir davrni, jamiyatni qisman ifodalaydi.

Leksikaning rivojlanishi, boyishi quyidagi yo'llar bilan amalga oshadi:

1. Boshqa tillardan so'zlar o'zlashtirish yo'li bilan;
2. Tilda qo'llanilib kelgan ayrim so'zlarning yo'qolishi;
3. So'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirishi, va bu jarayon quyidagicha amalga oshishi mumkin:

- so'z ma'nosining to'liq o'zgarishi
- omonim so'zlarning paydo bo'lishi
- so'z ma'nolaring kengayishi
- so'z ma'nolarining torayishi.

Tillar bir- biridan himoyalanmagan. Bir til boshqa bir tildan tovushlar , so'zlar va birikmalarni o'zlashtirishi mumkin.

O'zlashtirish , ya'ni o'zlashtirilayotgan til tomonidan so'z boyligini yanada oshirish, o'zlashma so'zlarni yanada mukammal, jarangdor bo'lishiga, ya'ni o'zlashtirgan tilning qoidalariga tayanib boyitiladi.

ASOSIY QISM

ITALYAN TILIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR

2.1 Italyan tili leksikasining tashkil topishi. O'zlashma so'zlar va neologizmlar

Qadimdan ma'lumki italyan tili leksikasining tashkil topishida 3 komponent muhim rol o'ynaydi. Bular quyidagilardir:

1. Qadimgi lotin tili, barcha so'zlar valq qadriyatlari volgar lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib italyan tili leksikasining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bundan tashqari kundalik ishlatiladigan so'zlar va iboralar yuqoridagi unsurlarda o'z ifodasini topadi.
2. O'zlashma so'zlar, bunday so'zlar boshqa tillardan kelgan bo'lib, bular quyidagidalar : nemis , fransuz , arab, ispan va boshqalar. Bu so'zlaning qiziqarli tomoni shundaki ular asosan klassik tillarning birlashmasidan hosil bo'lgan. (lotin va yunon).
3. Neologizmlar , bu turdagi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlardan suffiks, prefiks va qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladi.

Yuqorida ko'rsatilgan 3 komponentdan tashqari leksikaning rivojlanishiga ikkinchi darajali unsurlar ham yordam beradi. Bular:

- ❖ Onomatopiya, bir so'z shaklidan boshqa bir so'zning shakllanishi
- ❖ Qisqartirilgan so'zlar, nomlarning qisqartirilib faqat bosh harflarda ifodalanishi.

Lingvistik o'zlashma so'zlar

Chet tilidagi so'zlarning tilimizga kirib kelishi va ularning ishlatilishi tilimizda ma'lum bir yangi so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va bu turdagi so'zlar guruhi o'zlashma so'zlar deyiladi.

O'zlashma so'zlarning asosida so'zlar yotadi ya'ni o'zlashma so'zlarning shakllanishi hech qanday o'zgarishlarsiz tilimizga o'zining shakli va ma'nosi bilan kirib kelishi kuzatiladi. Masalan bar, film , leader, equipe, lager. Yoki bu turdagi so'zlar italyan tili fonologiyasi va morfologiyasiga qo'shilishi natijasida namoyon bo'ladi. Masalan treno, bistecca so'zlari fransuz tilida train ingliz tilida beefsteak,

boshqa gung fonemalar , oxirgi unlining qo'shilishi , morfolohik jihatdan shaxs-sonda ifodalanishi yaqqol ko'rinib turadi. Ulardan tashqari fransuz tilidan kirib kelgan *engager* va *mitraille* italyan tilidan *ingaggiare* va *mitraglia* kabi ifodalanadi. Nemis tilidan kirib kelgan *Lansknacht* si'zi italyan tilida *lanzonecco* deyiladi.

Ko'pchilik kishilar hech qanday o'zgarishsiz, qo'shimchalarsiz o'zlashma so'zlarni yaxshi tanishadi : bar, film, leader, equipe, lager chunki bunday so'zlar italyan tilidagi so'zlarning funksiyasini bajaradi, ba'zi bir insonlar esa aksincha qo'shimcha olgan , o'zgarishlarga uchragan o'zlashma so'zlarni bilishmaydi. Masalan treno va bistecca so'zlarning ingliz yoki fransuz tilidan kirib kelganini qancha so'zlashuvchi biladi? Ba'zi bir o'zlashma so'zlar o'zlarining asl shaklida yoki ularga to'g'ri keladigan shaklda ifodalanadi: misol qilib fransuz tilidagi *bleu* va *bleu*, *gilet* va *gilet*, *paletot* va *palto*, ingliz tilidagi *punch* va *ponce*, *roastbeef* va *rosbif* (yoki *rosbiffe*) larni aytib o'tishimiz mumkin.

O'zlashma so'zlarning turlari va harakteri.

O'zlashma so'zlarning aksariyati bu tarjima qilingan so'zlardir. Bunday so'zlarning ikki asosiy turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- Semantik, ya'ni ma'no jihatdan tarjima qilingan so'zlardir. Chet tilidan kirib kelgan so'zning ma'nosi va shakli jihatdan italyan tiliga tog'ri kelishi va qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Masalan ***conforti*** (uy xizmatlari) ingliz tilida ***comforts*** kabi ifodalanadi. Yoki italyan tilidagi ***autorizzare*** so'zi bir necha yil oldin ***'rendere autorevole'*** ya'ni 'mustaqil ishlamoq' ma'nosini anglatgan bo'lsa, hozirda bu so'zning ma'nosi ***'permettere'*** ya'ni 'ruhsat bermoq' kabi ifoda etiladi chunki bu so'z fransuz tilidagi 'autoriser' so'zita'siriga uchragan.
- To'gridan – to'g'ri tarjima (calco traduzione) italyan tiliga chet tilidan tarjima qilingan so'zlar guruhi: ***grattacielo*** ingliz tilida ***sky-scraper*** (sky-cielo, scraper- gratta); ***lotta di classe*** nemis tilida ***klassen kampf*** (klassen-classe, kampf- lotta).

O'zlashma so'zlar tillar orasidagi bog'liqlikni namoyon etuvchi muhim jarayondir. O'zlashma so'zlarning ikki tillilik (bilinguizm) bilan munosabati,

so'zlovchilar tomonidan holat va joyga qarab ikki tildan foydalanish davomida ko'rinadi. O'zlashma so'zlarning kelib chiqishi xalq tili yoki boshqa tillarning ta'sirida ham yaqqol ko'rinadi, bundan tahsqari ikki tilning bir-birini qadrlashida ham namoyon bo'ladi. Bunday holat nemis va roman tillarida kuzatiladi. O'zlashma so'zlarni muhimlik va boylik tomonidan farqlashimiz mumkin. Birinchidan so'z qachonki referent (ya'ni ob'yekt va g'oya, fikr) bilan birga bo'lsa, masalan patata gaytan so'zi bo'lib italyan tiliga ispan tili orqali kirib kelgan yoki caffe so'zi turk tilidan, zero arab tilidan (roman sonlarida zero ya'ni nol mavjud bo'lmagan) tram, transistor, juke-box kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan.

O'zlashma so'zlarning boylik jihatdan stilistik va ijtimoiy holati muhim o'rin tutadi. Jamiyatni, madaniyatni, yashash sharoitini eslashga xizmat qiladi: o'zlashma so'zlarning boyligi **leader, flirt, baby-sitter, week-end** so'zlarida ko'rinadi, chunki bu so'zlarni quyidagi so'zlar bilan almashtirishimiz mumkin, **capo, breve, relazione amoroso, bambinaia, fine settimana** kabilar. Ingliz tilidagi so'zlar va birikmalar ba'zida ularning qisqaligi qulaylik tug'diradi: ya'ni jurnalistika tilida, sohasida uchrab turuvchi so'zlarni tushuntirib beradi, masalan boom, show italyan tilidagi ekvivalentlari quyidagilar boom (italiyada ma'lum bir vaqt davomidasodir bo'lgan iqtisodiy rivojlanish), show (teatrning turi, bir necha har xil bo'g'inlardan tashkil topgan italyan tilidagi ekvivalenti sit-in ma'lum bir joyda tomoshabinlarni yig'ish). Tarixdan ko'rinib turibdiki il prestito di lusso tilning doimiy elementi ham bo'lishi mumkin.

O'zlashma so'zlar yozma va og'zaki shakllar orqali tilga kirib keladi. Tunnel so'zi yozma til orqali kirib kelgan. Italyan tilida "come e scritto" (qanday yozilgan) deb talaffuz qilinadi.

Agar tunnel so'zi og'zaki tildan kirib kelganda edi tanel deb talaffuz qilinar edi xuddi ingliz tilidagidek. Budget aksincha badjet deb talaffuz etiladi chunki og'zaki tildan kirib kelgan. Shunday turdagi ingliz so'zlari borki ular Italiyada har xil talaffuz etiladi, masalan:

inglizcha talaffuz**flirt** | flə:t|**italyancha talaffuz**

|flert| | flert|

flirt**ingliz talaffuziga o'xshatish****italyancha talaffuz**

Quyidagi talaffuz turlari har xil faktorlardan kelib chiqadi, shuningdek chet tilini yaxshi bilish ham muhim o'rin tutadi. Shuni ham aytib o'tishimiz joizki italyan tiliga kirib kelgan ba'zi bir so'zlarga hech qanday o'zgartirishlar kiritilmagan, jumladan flirt, leader va boshqa so'zlar. Italyan so'zlashuvchilari orasida ingliz fonetikasi va anglitsizmlar juda yaxshi o'rnashib olishgan, yuqorida ko'rib o'tilgan bar, film, sport, flirt va boshqalar kabi.

Shuni eslab o'tishimiz joizki fransuz tiliga kirib kelgan ingliz o'zlashma so'zlari fransuz tilida talaffuz etilgan, xuddi shu holat italyan o'zlashma so'zlarida ham kuzatilgan, misol qilib shuni aytishimiz mumkinki Fransuz va ingliz tiliga kirib kelgan italyan so'zlari fransuzcha va inglizcha talaffuz etilgan, masalan italyan tilidagi **andante** musiqiy termini butun dunyoga tarqalgan bo'lib bu so'z Fransiyada |ǎdǎt|, Angliyada esa |æn'dænti| kabi talaffuz etilgan.

Haqiqiy o'zlashma so'z va chet tilidan kirgan so'zning ma'nosini va ko'chma ma'nolarini to'g'ri farqlay olishimiz zarur. Misol qilib ba'zi bir O'rta Sharq olimlari o'zlashma so'zlarni yaxshi eslay olishgan ammo ularni talaffuz eta olishmagan shu vaziyatda ular so'zlarning ko'chma ma'nolarini qo'llashgan.

O'zlashma so'zlarga nimalar kiradi? Ot, fe'l va sifat so'z turkumlariga oid so'zlar kiradi (bu holat quyidagi germanizmlarda o'z ifodasini topadi, masalan **abbandonare** (tark etmoq), **guadagnare**(pul ishlamoq), **guardare** (tomosha qilmoq), **bianco** (oq rang), **guercio**(g'ilay), **ricco**(boy) kabi so'zlar). O'zlashma fe'llar va sifatlar ikki lingvistik tor ma'noda uyg'unlashadi va bundan tashqari bilingvistik sharoitni yaratadi. Yana shuni ham aytib o'tishimiz joizki o'zlashma so'zlar morfologiyani elementlari ham deyiladi. Bu elementlar german suffikslaridan kelib chiqqan bo'lib, bular quyidagilardir: - **ingo** casalingo (xonaki), ramingo(bevatan); -**ardo** bugiardo(yolg'onchi), codardo (qo'rqqoq); -**aldo** ribaldo(firibgar), spavaldo (qo'pol) va shular bilan bir qatorda fransuz tilidan kirib kelgan - **esco**, -**iere** cavaliere (kovaler), giardiniera(bog'bon); yunon tilidan

-essa badessa (rohíba), ostessa(styuardessa) va hozirgi zamonaviy yunon suffikslariga quyidagilar kiradi **-ista, -ismo, -ico, -izzare**.

Neologizmlar

Zamonaviy lingvistika neologizmlarni (yunoncha “neos” yangi va “logos” soʻz) lingvistika evolyutsiyasining asosiy personaji sifatida taʼkidlaydi. Yangi soʻz bu leksikaning boyishi demakdir. Yangi soʻzning shakllanishidagi barcha jarayonlar neologiya deb ataladi.¹

Chet tilidan kirib kelgan soʻzlarni prestiti yaʼni oʻzlashma soʻzlar deb atash afzal koʻriladi, neologizmlar esa prefiks, suffiks va tilda mavjud qoʻshimchalar yordamida yasallishiga aytiladi. Neologizmlar quyidagi ikki kategoriyada farqlanadi:

- a) yasama neologizmlar til elementlaridan tashkil topgan boʻlib, misol tariqasida quyidagilarni aytishimiz mumkin : **lotizzare** (yer maydonlarini boʻlmoq) feʼli, **lotto** (yer maydoni) soʻzi va **-izzare** (feʼl yasovchi suffiksdan) yasalgan, yoki **pensionamento** (pensiya chiqmoq) soʻziga **pre-** prefiksini qoʻshish yordamida **prepensionamento** (muddatidan oldin pensiya chiqmoq) soʻzi paydo boʻlgan.
- b) semantik neologizmlar shakl jihatdan hech qanday oʻzgarishlarga uchramasada, maʼno jihatdan oʻzgarishlarni talab qiladi, masalan : **orchestrare** musiqa yoʻnalishiga oid feʼl boʻlib, har xil musiqiy asboblarni tashkillashtirish va joylashtirish degan maʼnoni anglatadi, lekin hozirda **orchestrare una campagna elettorale, unʼazione politica** (siyosiy harakat) maʼnolarini anglatib, bu holatda **orchestrare** feʼli **organizzare** feʼli bilan bir xil maʼnoga ega boʻlmoqda, yaʼni ikkala holatda ham tashkillashtirmoq maʼnosini bermiqda.

Neologizmlar qayerda xabar va yangiliklar tezlikda tarqalsa oʻsha hududlarda tez shakllanadi va rivojlanadi. Yuqorida aytib oʻtilganidek neologizmlar tilda mavjud soʻzlardan, qisqartirilgan soʻzlardan, acronimlardan va bir soʻzning tovushlarini oʻzgartirish orqali ham yasalladi.

¹ Dardano M., Trifone P. – “La lingua italiana. Una grammatica completa e rigorosa” 358

Neologizmlarning tilda paydo bo'lishi va yo'qolishi uning tilga qabul qilinganligida yoki lug'atlardan joy olganligida namoyon bo'ladi. Agar neologizmlar jamiyat fuqarolari tomonidan qabul qilinib foydalanilayotgan bo'lsa, bu neologizmlar lingvistika va lug'atshunoslikda ham qabul qilingan hisoblanadi. Neologizmlarning paydo bo'lishi tilning rivojlanishida, o'zgarishida o'zining muhim o'rniga ega. Tilda neologizmlarning quyidagi turlari kuzatiladi:

- instabili (o'zgaruvchan) – yangi ma'noli, birgina madaniyat vakillari tomonidan tor ma'noda qo'llanilgan neologizmlardir.
- diffusi (tarqalgan) – jamiyat tomonidan ishlatiladigan ammo hali lingvistik jihatdan qabul qilinmagan neologizmlar.
- stabili (turg'un) – barcha taniydigan, foydalanadigan va davomiylikka ega neologizmlar.

Neologizmlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- ✓ *scientifici* (ilmiy) – ilm-fanda yaratilgan yangi termin yoki qoidalarga tasnif berish uchun yaratilgan so'zlar guruhi.
- ✓ *tecnologici* (texnologik) – yangi texnika va texnologiya ning paydo bo'lishi bilan iste'molga kiritilgan so'zlar jamlanmasi.
- ✓ *politici* (siyosiy) – siyosatga va iqtisodga kiritilgan yangi termin va buyruqlarni ifodalashda keng qo'llaniladigan so'zlar.
- ✓ *popolare* (keng tarqalgan) – ommaviy axborot vositalari orqali tarqalgan

2.2 Italyan tiliga har xil davrlar mobaynida kirib kelgan o'zlashma so'zlar

Italyan tiliga har xil davrlar mobaynida kirib kelgan o'zlashma so'zlar quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Germanizmlar

Germanizmlar son va sifat jihatdan o'zlashma so'zlarning lingvistik jihatdan muhimligini ko'rsatib beruvchi bo'limlardan hisoblanadi. Germanizmlar italyan tilida ko'p hollarda uchraydi shuning uchun ular mavhum hisoblanmaydi. Madaniy va ma'naviy dunyosi jihatidan Germanlar Romanlarning izdoshlari hisoblanadi. Qadimgi germanizmlar misolida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

alce, sapone (birinchi soch bo'yovchi vosita) , vanga , guerra (lotin tilidagi 'bellum'ga to'g'ri keladi). Bundan tashqari Gotlar harbiy sohaga oid so'zlarni italyan tiliga olib kirishgan, bular : bando (e'lon), guardia (qorovul, himoya), elmo (shlem- bosh kiyim, dubulg'a). Shular bilan birgalikda uy-joyga oid so'zlarni ham ko'rishimiz mumkin : rocca (qo'rg'on), spola (mokki) va boshqalar. Fe'l va sifat so'z turkumlariga oid so'zlar ham shular jumlasidandir : recare (yetkazmoq), smagare (hayratlanmoq), guercio (g'ilay), schietto(dilkash).

Italyan tilida longobard xalqiga tegishli so'zlar juda ko'p uchraydi, chunki longobard xalqi gotlardan farqli o'laroq Italiya hududida 2 asrcha hukmronlik qilishgan va Romanlarning siyosiy hayotini rivojlantirgan. Longobard so'zlarini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: **spiedo** (o'q), **squattero** (oshpaz yordamchisi), **stamberga** (go'r, toshli uy) , **guancia**(yuz), **schiena**(bel), **stinco** (oyoqning son qismi) , **anca** (buksa), **ciuffo**(kokil); operatsion texnikani ifodalovchi fe'llar: **imbastire** (uloqtirmoq), **gualcare**; umumiy fe'llar **arrafare** (qo'ldan tutmoq), **graffiare** (tirnamoq), **scherzare**(hazillashmoq), **spaccare** (sindirmoq, maydalamoq), **spiare** (poylamoq), **spruzzare** (sepmoq), **tuffare** (bo'ktirmoq). Longobardlardan nafaqat sifat, fe'l so'z turkumlariga oid so'zlar shular bilan bir qatorda kishi nomlari ham italyan tiliga kirib kelgan, jumladan: **Baldo, Baldini, Berto, Bertini , Bertoni, Alberti , Albertazzi** va boshqalar.

Franklarga rimliklarning til va madaniyati kuchli ta'sir etganligi tufayli Italiyaga kelishgani tarixiy manbalarda ko'rsatilib o'tilgan. Franklar italyan tiliga quyidagi so'zlarni olib kirishgan : **giardino** (bog', nemis tilida esa gardo deb talaffuz qilingan), **bosco** (o'rmon), **dardo** (o'q-yoy), **gonfalone** (bayroq), **schiera** (qator), **tregua** (tinchlik), **feudo** (egalik), **barone** (baron) , bulardan tashqari ba'zi bir fe'llar ham kirib kelgan : **ardire** (haddi sig'moq), **guarnire** (mustahkamlamoq), **guarire** (sog'aymoq) va ba'zi bir mavhum otlar : **orgoglio** (faxr), **senno** (aql, fikr) shular jumlasidandir.

Italyan volgar yozuvlari paydo bo'lishi bilanoq ba'zi bir nemis tiliga taalluqli so'zlar italyan tiliga kirib kelishdi, bular: XIII asrda Guelfi va Ghibellini nomlari ; XVI asrda alabarda , lanzicheneco, brindisi kabilardir. XIX asrda italyan

tiliga nemis tilidan bir qancha so'zlar , birikmalar kirib keldi va bular mamlakatning madaniyati rivojiga katta hissa qo'shdi, bu jarayon quyidagi so'zlarda namoyon bo'ladi: *eticita* (axloq), *lotta di classe* (sinflar kurashi) , *storia della cultura* (madaniyat tarixi).

Gretsizm va arabizmlar

Arablar asrlar davomida O'rtayer hududida , jumladan Sitsiliyada 827-yildan boshlab 1070-yillargacha hukmronlik qilishgan. Arab tilidan o'simliklar va sabzavotlarning nomlari , jumladan: ***arancia*** (apelsin), ***melanzana*** (baqlajon), ***spinacio*** (ismaloq) , ***zuccher*** (shakar) , ***limone carciofo***(artishok-o'simlik turi), ***cottone*** (paxta); savdo-sotiqqa taalluqli so'zlar guruhi : ***dogana*** (bojxona), ***fondaco*** (rasta), ***magazzino*** (do'kon, ombor), ***tara*** (chegirma), ***tariffa*** (tannarx), dengizchilikga oid so'zlar : ***arsenale*** (qurol-yaroq ombori), ***darsena*** (bandargoh hovuzi), ***gomena*** (sim arqon), ***libeccio***(janubiy-g'arbiy shamol), ***scirocco*** (janubiy-sharqiy shamol) kirib kelgan.

Yunon , hind va forslarning madaniyatini saqlab qolishgan arablar fan va madaniyat cho'qqisini zabt etdilar. Arablar tufayli bir qncha arabizmlar yuzaga keldi, quyidagilar shular jumlasidandir , matematika faniga oid so'zlar : algebra (algebra), algoritmo (algoritm), cifra (raqam), zero (nol); astranomiya oid : almanacco (kalendar), auge 'apogeo' (yuqori nuqta), nadir (nodir nuqtasi), zenit (zenit); sanoat va texnikaga oid so'zlar : alchimia (alkimyo), alambicco (suyuqlik saqlovchi idish), elisir (eliksir), canfora (mazut), talco (talk), alcali (ishqorli tuz), borace (parmalash uskunasi); shaxmat o'yiniga oid : alfiere (fil), scaccomatto (shaxmat doskasi). Bulardan tashqari ba'zi umumiy so'zlar, jumladan: azzuro (havo rang), facchino (hammol), ragazzo (o'g'il bola) so'zlari ham arab tilidan kirib kelgan. Ba'zi bir arabizmlar uzoq tarixga ega bo'lib , bular : alambicco (kolba – shisha idish), alchimia (alkimyo) lardir. Lotin tilidagi castrum 'castello' va praecocuum 'frutte precoce' (tez pishadigan mevalar) kabi so'zlar arab tiliga o'zlashma so'zlar kabi kirib , quyidagi shakllarga ega bo'lishgan cassero (qolip), albicocca (o'rik).

Yuqoridagi soʻzlarning oʻzlashish jarayonining koʻp holatlarida soʻzlarning maʼno jihatdan oʻzgarishini koʻrishimiz mumkin.

Vaqt oʻtishi bilan yana bir qancha arabizmlar italyan tiliga kirib kelgan, bular: tazza (piyola), cremisi (qizil rang), giulebbe (damlama), moschea (madrasa), tafferuglio (janjal) kabilardir. XVI asrda arab, fors va turk tovushlari italyan tiliga kirib kelgan, bu jarayonni quyidagi soʻzlarda koʻrishimiz mumkin: alcool (in origine ‘polvere impalpabile’ ‘sezilmaydigan chang’), chiosco, divano (in origine ‘luogo delle adunanze’ ‘majlislar joyi’), serraglio (koʻchat yetishtiruvchi joy), sofa (sofa), turbante (salla), sorbetto (sharbat), caffè (qahva).

Latinizmlar

Yuqorida koʻrib oʻtganimizdek xalq soʻzlari vulgar lotin tilidan kirib kelgan boʻlib, hali hanuzgacha oʻz qadr- qiymatiga ega. Latinizmlar bir nacha asrlardan soʻng ziyolilar tomonidan italyan tiliga kirib kelgan, chunki ularning yozma ishlari, asarlari lotin tilida yozilgan va chop etilgan. Latinizmlar nafaqat soʻzlarning oʻzlashishida italyan madaniyatining rivojlanishida oʻzining beqiyos oʻrniga ega. Xalq soʻzlaridan farqli oʻlaroq latinizmlar asl lotin tilining shaklini saqlab qolishgan. Bu farqni allotroplarda kuzatishimiz mumkin. Bir lotin soʻz tugallanish jihatdan ikki xil shaklga ega boʻlishi mumkin, bu farqni xalq tilida va latinizmlarda koʻrishimiz mumkin.

xalq soʻzi	vezzo	pieve	cerchio	soldo
lotin soʻzi	vitiu (m)	plebe	circulu(m)	solidu(m)
latinizm	vizio	plebe	circolo	solido

Latinizmlar va xalq soʻzlari nafaqat oxirgi boʻgʻin shu bilan bir qatorda maʼno jihatdan ham farq qiladi. Quyidagi latinizmlar italyan tiliga har xil davrlarda kirib kelganligini koʻrishimiz mumkin.

XIII asr : scienza (ilm-fan), coscienza (ong), sapienza (bilim), specie (nav ,tur), reale (haqiqiy), formale (qonuniy), vivificare (jonlantirmoq).

XIV asr : repubblica (respublika), milite (askar, harbiy), esercito(armiya), congiuntiva (bogʻlovchi).

XV asr : arbusta (buta), insetto (hasharot), pagina (bet), applaudire (olqishlamoq), esonerare (ozod qilmoq).

XVI asr : arguzia (o'tkirlik), canoro(hushovoz), colloudare (amaliyot o'tkazmoq), erogare (tarqatmoq , ajratmoq).

XVII asr : antenna (antena), bulbo (kolba- shisha idish), cellula (katakcha), condominio (egalik), societa (jamiyat), condensare (qisqartirmoq).

XVIII asr : corolla (venchik – gul turi), centripeto (markazga yo'naltirilgan), centrifugo (markazdan tashqariga). Franco - latinizmlar va franco- gretsizmlar : analisi (tahlil), coalizione (ittifoq), emozione (hissiyot), epoca (davr), industria (sanoat). Anglo –latinizmlar colonia (bir guruh chet elliklarning bir shaharda yashashi), esibizione (taqdimot), costituzionale (konstitutsiyaviy), legislatura (qonun ishlab chiqaruvchi tashkilot), sessione (sessiya).¹

Yuqoridagi misollar latinizmlarning italyan tili leksikasining shakllanishida juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib bermoqda. Sanab o'tilgan so'zlar dastlab madaniyat olamida , keyinchalik tarixiy va arxaik so'zlarning umumiy tilga kirishi (bilan bog'liqligida ko'rish mumkin), yangi terminlarga ehtiyoj sezgan boshqa turli xil yo'nalishlarni boyitishda o'z o'rniga ega bo'lgan.

XVIII asrga oid latinizmlar va gretsizmlar italyan tiliga fransuz va ingliz tillaridan kirib kelgan, bu tillar klassik tillar guruhiga kirib keyinchalik Yevropa mamlakatlarida tarqalgan . Bu tillar guruhiga kiruvchi falsafa , iqtisod, siyosatga oid so'zlar bo'lganligi uchun yevropa leksikasi intellektual harakterga ega hisoblanadi.

2.3 Yevropa davlatlarining italyan tili leksikasiga ta'siri

Fransiya , Provans va Ispaniya davlatlarining italyan tiliga ta'siri.

774- yilda Karlomagno tomonidan Italiyaning bosib olinishi italyan tilida antik fransuz tilining ta'sirini kuzatishimiz mumkin. Fransuz tili vakillari normanlar 2 asr davomida Italiyaning janubiy qismini mustamlaka qilishgan. Ziyoratchilar , xristianlar, monaxlar, provanslar va fransuzlar adabiyoti shuni

¹Dardano M., Trifone P. – “Grammatica italiana con nozioni di linguistica” 365

ta'kidlaydiki , italyan tiliga kirib kelgan o'zlashma so'zlar Alp tog'lari tomonida ko'proq tarqaladi.

Gallitsizmlarni (frantsesizmlar va provenzalizmlarni o'z ichiga oladi) har xil yo'nalishlarda uchratishimiz mumkin, ritsarlar hayotiga oid : cavaliere (kovaler), scudiere (qurolbardor), messere (janob), dama (xonim), damigello(cho'ri), lignaggio (qabila, urug'); urushga oid : arnese (qurol-yarog'), foraggio (yem-hashak), gonfalone (bayroq, tug'), stendardo (bayroq); kiyim va uy jihozlariga oid: cotta (nimcha), fermaglio (zakolka-soch taqinchog'i), gioiello(taqinchoq), cuscino (yostiq), doppiere (shamdon); ovga oid so'zlar guruhi: astore (qirg'iy), levriere (ovchi it), sparviere (qirg'iy), veltro (tozi it). Quyidagi so'zlarni ham sanab o'tishimiz mumkin: derrata (qishloq xo'jalik, oziq-ovqat mahsulotlari), lira (tanga pul birligi yoki cholg'u sbobi), ostello (mehmonxona, boshpana), passaggio (ko'chish), viaggio (sayohat).

Shunday mavhum so'zlar borki , bular pensiero (pensamento so'zining o'rniga shakllangan, o'y-fikr), foggia (shakl), preghiera (sig'inish), sorta (nav tur) kabilar bo'lib o'z qiymatlariga ega bo'lishgan.

Kateau- Cambresis va Pireney xalqlari ispanlarning Italiyada bir necha yillar davomida hukmronlik qilishgani haqida ta'kidlashadi. Bu hududlarga Milan Gersogligi, Himoya istehkomlari , Napoli qirolligi, Sitsilya va Sardenyalar kiradi. Bu vaqt davomida bir qancha ispan tiliga oid so'zlarning italyan tiliga o'zlashganining guvohi bo'lamiz. O'tgan asrlarda Italiyaning janubiy qismida va boshqa hududlarida katalon tili ya'ni aragonlar, qadimiy ispan va portugal so'zlarining mavjudligi yaqqol dalilidir.

Ispan tilidan kirib kelgan o'zlashma so'zlar : baciama(mulozamat), compliment (maqtov, kompliment), creanza(mulozmat ,iltifot) , etichetta (yorliq), sfarzo (dabdaba), sussiego (dimog'dorlik), puntiglio (qaysarlik). Shular bilan bir qatorda ispan tilidan kirib kelgan ikki turdagi semantik so'zlar mavjudligi kuzatiladi: flemma 'calma , lentezza'(sovuqqon, bosiq) va signore (italyan tilidagi signorina so'zining o'zagi ya'ni asosi sifatida).

Bundan tashqari dengizga va urushga oid soʻzlar ham koʻzga tashlanadi : baia (boʻgʻoz), cala (kema yukxonasi), flotta (flot), tolda (yuqori paluba), babordo (chap bort), guerriglia (kichik urush), parata (himoya vositasi), zaino (yukxalta), caracollare (otda yurmoq , chavandozlik).

Bulardan tashqari, marrano (yovuz niyatli inson), fanfarone (maqtanchoq), vigliacco (qoʻrqoq), lazzarone (bekorchi , shum) kabi soʻzlar alohida oʻrin tutgan. Portugal tilidan kirib kelgan palanchino (zambil) va catamarano (katamaran) soʻzlari zambil va kema turlarini ifoda etishgan.

XVIII asrda fransuz tili .Yevropa leksikasining inetelektualligi XVIII asrning ikkinchi yarmida tarqalgan illuminizm madaniyatida koʻzga tashlanadi. Oʻsha davrning madaniyat oʻchogʻi Yevropa ning Fransiya davlati hisoblangan va fransuz tili yangi gʻoya va fikrlarning namoyon etilishida keng qoʻllanilgan , chunki bu til barcha olimlar, ziyolilar va yevropaning barcha yuqoyi tabaqa vakillariga tanish boʻlgan. Oʻsha davrning kalit soʻzlari : “secolo dei lumi “ aql-idrok asrida ongning hukmronligi; “il fanatismo e il pregiudizio” ishonch va goʻyaning ziddiyati. Illuminizm davrida keng maʼnoga ega boʻlgan filosofo (faylasuf) soʻzi oʻzining beqiyos oʻrniga ega boʻlgan. Yangi gʻoya va fikrlarni oʻylab topuvchi spregiudicatlar (odil shaxslar) ruhan kuchli va ozod faylasuflar hisoblanishgan. Ularning gʻoya va fikrlari faqatgina oliy maqsad yoʻlida yaʼni butun insoniyatni, borliqni yuksak choʻqqilarga olib chiqish va rivojlantirish edi.¹

Bir qancha soʻzlar siyosatga oid boʻlib, bular : patriota (patriot-vatanni sevuvchi shaxs), democrazia (demokratiya), dispotismo (dispotizm), comitato (komitet), costituente (konstitutsiyaviy majlis), Corte di cassazione (qayta koʻrib chiqish sudi), Consiglio di Stato (davlat qoʻmitasi); iqtisodga oid soʻzlar: aggio (shov-shuv), conte corrente (joriy hisobot), monopolio (yakka hokimlik), concorrenza (raqobat), esportare e importare (eksport va import qilmoq); moda dunyosiga oid: ghette (gamash), flanella (gumbaz mato turi); oziq – ovqatga oid : bigne (bulochka), cotoletto (kotlet), filetto (file, langet). Yuqoridagilardan tashqari quyidagi soʻzlar ham itlayan tiliga kirib kelgan , bular:

¹ Carmelo, Angiolina e Marta Sambugar – “Strutture dell’Italiano” 258

belle arti (jozibador san'at), colpo d'occhio, presenza di spirito, sangue freddo (sovuqqon). Quyidagi fe'llar guruhi o'zlashma so'zlar orasida alohida o'ringa ega, bular: aggiornare (to'g'irlamoq) attivare (harakatga keltirmoq), controllare (nazorat qilmoq), organizzare (tashkillashtirmoq), risolvere (hal etmoq). Ko'pgina siyosatga oid so'zlar latinizmlardir, biroq ularning zamonaviy talqini Angliya va Fransiyada Yevropaning boshqa mamlakatlariga nisbatan ko'proq qo'llaniladi, jumladan: liberale lotin tilida 'generoso'ya'ni ko'ngli ochiq degan ma'noni anglatib siyosatda adolatli, ishonchli insonni gavdalantiradi. Kelib chiqish jihatidan fransuz va ingliz tillariga borib taqalgan latinizmlar : conservatore (konservator), maggioranza (ko'pchilik, kattalik), opposizione (qarshilik), petizione (kechirim, uzr, iltimos, talab), radicale (o'zak). Yangi lotin tilidan kirib kelgan so'zlar : costituzionale (konstitutsiyaviy), comunismo (komunizm), socialismo (sotsializm).

XVIII va XIX asrlarda ingliz tilining italyan tiliga ta'sirini kuzatishimiz mumkin. Bu ta'sir anglo-latinizmlarda namoyon bo'ladi: adepto (tarafdor), colonia (mustamlaka), costituzionale (konstitutsiyaviy), legislatura (qonun ishlab chiqaruvchi organ), acquario (akvarium), criterium (musobaqa), idrante (gidrant), inflazione (inflyatsiya), selezione (saylov).

Yuqorida qayd etilgan so'zlar XX asrda ham ko'zga tashlanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr AQSH dan Italiyaga texnika , texnologiya, moda va boshqa turli xil mahsulotlarning kirib kelishi bilan bog'liqdir. Shu asnoda shuni eslab o'tish joizki ingliz tilidan kirib kelgan so'zlar o'ziga xos fonetik va leksik qiymatga ega bo'lishgan bu xislatlar anglo-amerika tilida yaqqol ko'rinadi. Urushdan keyingi yillarda Italiyaning qayta shakllanishini ko'rishimiz mumkin, jumladan qishloq- xo'jalik iqtisotidan sanoatlashgan iqtisodga o'tishi, aholining rivojlanish darajasi , xalqlar aro munosabatning shakllanishi kabilardir. Jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy yangiliklar natijasida leksikada turli xil o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlarda quyidagi sohalarda shakllandi, ilmiy-texnika , reklama va hattoki kelib chiqishi psixologiyaga borib taqaladigan so'zlar guruhlarida uchratishimiz mumkin. Ingliz tili so'zlarning , birikmalarning ,

nomenklaturalarning va lingvistik asoslarning tildagi o'rnini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Yuqorida ko'rib o'tganlarimizni ta'kidlash maqsadida quyidagi ingliz tilidan kirib kelgan bir qator so'zlarning xilma-xilligini va ma'noliligini ko'rishimiz mumkin, ammo bu so'zlar hozirgi italyan tilidagi so'zlardan ancha farq qiladi. Bular : baby-sitter (enaga), bar (bar), best-seller(yaxshi savdo hodimi) , bitter (achchiq), bluff (yolg'on) , boom (tezda ko'tarilish) , budget (grand, kapital), bulldozer (tuproq suruvchi traktor), (auto) bus (avtobus), camping (lager), check-up (tekshirmoq), commando (komandir, boshliq), computer (kompyuter), container (konteyner), dancing (raqslar), detective (isquvar, detektiv), film (kino), flash (yaltiroq), flipper (suzgich), folklore (og'zaki ijod, folklyor), gap (tuynuk, yoriq), gin (qopqon), golf (golf), gymkana (avtomobil sport turi uchun maydon), handicap (baryer, to'siq), hanga(boshpana), happening (hodisa), hobby (qiziqish), hostess (styuardessa), jazz (djaz musiqi janr), jeep (djip avtomobil rusumi), jet (qora yantar), juke-box (musiqiy avtomat), killer (qotil), leader (boshqaruvchi), manager (menedjer), marine (dengizchi), mass media (), miss (yo'qotmoq), motel (motosikl turi), nurse (hamshira), nylon(neylon – mato turi), offset (mukofotlamoq), partner (sharik), playboy(bekorchi), pullman (kichik avtobus), pullover (jemper), quiz (qisqa matn), racket (raketka), radar (radar), raid (pistirma), rally (birlashish), record (qaydlar), relax (bo'shashmoq), reporter (reportyor), round (dumaloq), sandwich (sendvich yengil ovqat turi), show (ko'rsatmoq), sit-in (qatnashmoq), sketch (eskiz), slip (sirpanmoq), slogan (kalit so'z), smog (quyuq tutunli tuman), smoking (chekish), sponsor (ta'minlovchi shaxs), sport (sport), sprint (), stop (stop, ta'qiq), suspense (havotir), test (sinov), thrilling (chuqur hayajon), toast (qizartirilgan non), tram (way) (tamvay), trust (ishonch, to'g'ri), tunnel (yer ostki yo'l), week-end (hafta oxiri, yakshanba), western (g'arbiy), whisky (viski- ichimlik turi), yacht (yaxta- kema turi).

Yuqorida ko'rib o'tgan anglitsizmlar italyan tilida o'zining sinonimlariga egadir, masalan : bar – caffè, computer – elaboratore, jeep – camionetta , killer – sicario , sandwich – tramezzino . Ba'zi bir anglitsizmlar asl holatida yoki italyan tilidagi ekvivalentlarining o'ringa- o'rin ishlatilishi ham mumkin. Bu turdagi

so'zlarni sport yo'nalishida lo'rishimiz mumkin: fallo – foul, gioco di testa – heading, centrattacco – center forward, ripresa – round, rete – goal (gol).

Asosi italyan tilida ammo suffikslari italyan tiliga tegishli ba'zi bir anglitsizmlar ham leksikaning boyishiga xizmat qiladi, bular: handicap→(h) anndicappato, manager →manageriale, bar → barista, dribbling →dribblare, sponsor →sponsorizzare.

Bir qancha bir –biriga o'xshash, asosi bir xil ammo ikki tilda ham mavjud so'zlar guruhi ham leksikada kuzatiladi, bular: acculturazione ↔ acculturation, automazione ↔ automation, cibernetica ↔ cybernetics, contattare ↔ to contact, fissione ↔ fission, impatto ↔ impact, cartoni animate ↔ animated cartoons, obiettore di coscienza ↔ conscientious objector, autocosienza ↔ self-consciousness, grattacielo ↔ sky-scraper, elaboratore o calcolatore ↔ computer, vertice ↔ summit.

2.4 Italyan dialektlaridan o'zlashgan so'zlar guruhi

Dialekt – bu tilning bir ko'rinishi bo'lib, ma'lum bir territoriyadagi insonlar o'rtasida aloqani ta'minlovchi vositadir. Dialekt nutqiy munosabatlarda to'laqonli sistema hisoblanadi. Bunda u o'zining grammatikasi hamda lug'at tarkibiga ega.

An'anaga ko'ra, dialekt deyilganda, region, qishloq hududlaridagi shevalar tushunilgan. Hozirgi kunga kelib esa, dialekt deyilganda, ma'lum shahar territoriyasida qo'llanuvchi shevalar ham tushuniladi. Misol uchun, AQSHda qora tanli shahar aholisining ishlatadigan tili. Chunki bu til ingliz tilining boshqa ko'rinishlaridan ancha farq qiladi.

Ijtimoiy munosabatlarda dialektlar standart ya'ni adabiy tilga qarama-qarshi qo'yiladi. Shundan kelib chiqqan holda, dialektlarga xos bo'lgan xususiyatlar bu ijtimoiylik, yosh bilan bog'liqlilik va bu dialektni olib yuruvchilar sonining chegaralanganligi hisoblanadi.

Italyan tilining rivojlanishida va boyishida dialektlarning o'rni beqiyosdir. Dastlabki davrlarda Italiyaning har xil regionlaridan kirib kelgan bir qancha so'zlar guruhi quyidagi misollarda yaqqol ko'rinadi, bular: Venetsiyadan kirib kelgan arsenale (qurol-yaroq ombori), lido (qirg'oq); Jenovadan scoglio (qoya), prua

(kemaning old qismi yoki sinov), darsena (qurol-yaroq omborxonasi); Napolidan ammainare (yelkanlarni yig'moq); Palermidan portolano (port komandiri), lava (lava) kabi so'zlar kirib kelgan.

Xo'sh dilaektlar leksikaning qaysi sohasida ko'zga tashlanadi?

Dialektizmlarning asosiy ikki kategoriyasi mavjud bo'lib, bular:

- texnikaga oid terminlar (qishloq-xo'jalik, chorvachilik, joy nomlari, nomenklaturalarning har xil turlari)
- ma'lum bir vaziyat va holatga, kiyimga, hazilga mos keladigan ifodali so'zlar guruhi.

Yuqoridagi ikki kategoriyalar, XIX asrda Lombardiyada filanda (ipak fabrikasi), Florensiyada filatoio (ipak ishlab chiqaruvchi mashina) kabi so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Keyinchalik Florensiyada ammazatoio (jang maydoni), mezzaiolo (dehqon), mezzeria (yer o'qi), marcitoia (o'tloqzor); Rimda va Markaziy Italiyada mattoio (jang maydoni); Emilyada mezzadro va mezzadria (yer o'qi); Lombardiyada marcita (o'tloqzor) kabi ma'no jihatdan bir-biriga o'xshash so'zlar paydo bo'lgan.

Barchamizga ma'lumki Italiyada 20 ta region mavjuddir. Quyida keltirilgan misollarda regionlarda o'zlashgan o'zlashma so'zlarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Jenovadan abbaino (cherdak), acciuga (baliq konserva -kilka); Lombardiya dan balera (raqs maydoni), barbone (uzun soqol), gorgonzola (pishloq turining nomi), grana (boshqoq), metronotte (qorovul), panettone (panetton), risotto (qaynatilgan guruch – ovqatning nomi); Piyemontedan arrangiarsi (joylashmoq), cichetto (stakan), fonduta (ovqat nomi), gianduitto (yong'oqli shokolad turi); Rimdan bocce (grafin), caciara (pishloq omborxonasi), cocciuto (qaysar), pappagallo (to'tiqush), pizzardone (nazoratchi); Napolidan camorra (mafiya), amerta, spocchia (dimog'dorlik); Sitsiliyadan mafia (mafiya) va intralazzo (qora bozor) kabi so'zlar kirib kelgan.

Bulardan tashqari roman-napoletan hududlariga tegishli quyidagi so'zlar ham mavjud, bular: fasullo (soxta), racchio, scippo (og'irlik), stronzo (yaramas) va boshqalar.

XULOSA

Til jamiyat tomonidan yaratilganligi uchun ham, uning yashashi va rivojlanishi shu gaplashuvchilarning mavjudligi va taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Chunki jamiyatda ro'y bergan o'zgarishlar ta'sirida til ham o'zgarib, rivojlanib boradi. Demak tilning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langandir. Buning yaqqol dalili sifatida tilning lug'at sathini va boyligini kuzatishimiz mumkin. Tilning shakllanishida , rivojlanishida va boyishida o'zlashma so'zlarning , neologizmlarning va dialektlarning o'rni beqiyosdir. Bu turdagi so'zlarning ko'payishi va tarqalishi ma'lum bir xalq vakillarining ishtiroki orqali namoyon bo'ladi. Tillar bir- biridan himoyalanganmagan. Bir til boshqa bir tildan tovushlar , so'zlar va birikmalarni o'zlashtirishi mumkin. O'zlashtirish , ya'ni o'zlashtirilayotgan til tomonidan so'z boyligini yanada oshirish, o'zlashma so'zlarni yanada mukammal, jarangdor bo'lishiga, ya'ni o'zlashtirgan tilning qoidalariga tayanib boyitiladi.

Chet tilidagi so'zlarning tilimizga kirib kelishi va ularning ishlatilishi tilimizda ma'lum bir yangi so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va bu turdagi so'zlar guruhi o'zlashma so'zlar deyiladi.

Qadimdan ma'lumki italyan tili leksikasining tashkil topishida, qadimgi lotin tili, barcha so'zlar, xalq qadriyatlari volgar lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, italyan tili leksikasining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bundan tashqari kundalik ishlatiladigan so'zlar va iboralar yuqoridagi unsurlarda o'z ifodasini topadi, o'zlashma so'zlar, bunday so'zlar boshqa tillardan kelgan bo'lib, bular quyidagidalar : nemis , fransuz , arab, ispan va boshqalar. Bu so'zlaning qiziqarli tomoni shundaki ular asosan klassik tillarning birlashmasidan hosil bo'lgan, neologizmlar , bu turdagi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlardan suffiks, prefiks va qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladi.

Italyan leksikasida asrlar davomida bir qancha o'zgarishlar kuzatilib kelingan , buning asosiy sababi Yevropa davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoli, Ikkinchi jahon urushidan keyingi vaziyat va xalqlarning bir davlatdan boshqa bir davlatga ko'chib o'tishida namoyon bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan

davrlarda tilga yangi so'zlarning, atamalarning , birikmalarning kirib kelishi va o'zlashishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, referatmni yozish davomida italyan tili leksikasi ustida bir qancha izlanishlar olib bordim, izlanishlarim natijasida italyan tilidagi o'zlashma so'zlarning til lekksikasidagi o'rnini qanchalik darajada muhim ekanligini bildim . O'zlashma so'zlar va neologizmlar nafaqat italyan tilining rivojlanishida , shu bilan bir qatorda boshqa yevropa tillarining ham boyishida o'zining ahamiyatiga egadir. Tilda sodir bo'ladigan o'zgarishlar yangi texnika va texnologiyalarning hayotga tadbqiq etilishi bilan ham chambarchas bog'liqdir , chunki yaratilayotgan har bir yangi vositalarning nomlari va atamalari tilning lug'at boyligidan joy oladi va vaqt o'tishi bilan ular o'rnini boshqa so'zlar egallaydi bu hodisa asrlar davomida barhayot yashab davom etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Nazariy manbalar:

1. Karimov I.A – “Barkamol avlod orzusi” “Sharq” Toshkent 2000 –245 b.
2. K a r i m o v I.A. – “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” – “O’zbekiston”, Toshkent, 2000.
3. Karimov I.A. –“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” – “Ma’naviyat”, Toshkent, 2009 –175 b.
4. Cambi L., Ginzburg C., Insolera D., Sofri G. – “L’Italia: ambienti e regioni” – Zanichelli S.p.A., Bologna, 1983 – 410 p.
5. Carmelo, Angiolina e Marta Sambugar – “Strutture dell’Italiano” – Tipolitografia Istituto S.Gaetano, Firenze, 1986–639 p.
6. Coveri L., Benucci A., Diadori P. – “La varietà dell’Italiano” – Bonacci Editore, Roma, 1998–322 p.
7. Dardano M., Trifone P. – “Grammatica italiana con nozioni di linguistica” – Zanichelli Editore S.p.A., Bologna, 1995–789 p.
8. Dardano M., Trifone P. – “La lingua italiana. Una grammatica completa e rigorosa” – Zanichelli Editore S.p.A., Bologna, 1985–463 p.
9. Nadia Cannata – “Gli scrittori italiani” - Zanichelli Editore S.p.A., Bologna, 1997–431 p.

2. Lug’atlar:

1. Baldelli I., Mazzetti A., Falcinelli M., Servadio B. – “Dizionario Fondamentale della lingua italiana per stranieri” – La Tipografica Varese S.p.A., Firenze, 2005–442 p.
2. Coda C. – “Dizonario: italiano-latino, latino-italiano” – Rielaborazione della 20a edizione, Torino, 1897– 678 p.
3. Cortellazzo M., Zolli P. – “Dizionario Etimologico della Lingua Italiana” - Zanichelli Editore S.p.A., Bologna, 1996 –1856 p.
4. Pittàno G. – “Dizionario grammaticale e degli usi della lingua italiana” - Zanichelli Editore S.p.A., Bologna, 1993.

1. Sandrone A.M., K a r i m o v I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent :O'zbekiston, 2000.
5. Tullio De Mauro – “Il dizionario della lingua italiana” – Pavarina Buno Mondadori Editore, Milano, 2000– 2998 p.
6. Vladimir Kovalev – “Dizionario russo-italiano, italiano-russo” Zanichelli Editore S.p.A., Bologna, 2000 –2176 p.
7. Zorko G.F. – “Nuovo dizionario italiano-russo” AST: Astrel, Mosca, 2011 –608 p.
8. Белик Е.В. – “Современный итальянско-русский, русско-итальянский словарь” – ООО “Удача”, Ростов-на-Дону, 2008 – 480 с.

3. Internet manbalar:

1. <http://www.differenzatra.it>
2. <http://www.treccani.it>